



**COMPETENCES FOR INCREASING PROFESSIONAL
MOBILITY IN EDUCATION OF AGRICULTURAL
ENGINEERING STUDENTS**

Khidirova Muhabbat Murodillayevna

Researcher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17300471>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 08th October 2025

KEYWORDS

agriculture, professional
mobility, engineering students,
competence, integration.

ABSTRACT

This paper highlights developing the competence 1 of professional mobility of the engineering students who are studying in the area of agriculture. Furthermore, this papers reveals goals of professional mobility and integration of profession with studies at university. Besides, it reveals the statements of scholars according to advantages of professional mobility.

**КОМПЕТЕНЦИИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
МОБИЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ СТУДЕНТОВ
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ИНЖЕНЕРОВ**

Хидирова Мухаббат Муродиллаевна

Исследователь

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17300471>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 08th October 2025

KEYWORDS

сельское хозяйство,
профессиональная
мобильность,
студенты инженерных
специальностей,
компетенции, интеграция.

ABSTRACT

В данной статье рассматривается развитие компетенций в области профессиональной мобильности студентов инженерных специальностей, обучающихся в области сельского хозяйства. Кроме того, раскрываются цели профессиональной мобильности и интеграция профессии с обучением в университете. Кроме того, приводятся мнения учёных о преимуществах профессиональной мобильности.

**QISHLOQ XO'JALIGI MUHANDISLIGI TALABALARINI O'QITISHDA
KASBIY MOBILIGINI OSHIRISH KOMPETENSIYALARI**

Xidirova Muhabbat Murodillayevna

Tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17300471>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 08th October 2025

KEYWORDS

*qishloq xo'jaligi, kasbiy mobillik,
talaba-muhandislar,
kompetensiya, integratsiya.*

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi sohasida taxsil olayotgan talaba-muhandislarni sohaga oid bo'lgan fanlarni o'qitish jarayonida kasbiy mobilligini oshirish kompetensiyalarini takomillashtirish haqida to'liq ochib beriladi. Shu bilan bir qatorda, nazariya bilan amaliyotni chambarchas olib borish, ya'ni integratsiyalashuv jarayonida erishiladigan yutuqlar va kasbiy mobillikni ta'minlash ko'nikmalari haqida olimlarni fikr-muloxazalari hamda qarashlari haqida to'liq yoritilgan.

Kirish

Ta'lim-tarbiya jarayonida, ayniqsa, sohaviy fanlarni o'qitishda talaba-yoshlarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni tizimli ravishda o'rgatish lozimdir. Shubhasiz hozirgi yoshlar ko'proq bilim va kasbiy mobillik bilimlarini talab etishadi, shu sababli muhandislarga integratsiyon yondashuv asosida ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish zarurdir. Kasbiy sohalarni o'qitishda albatta laboratoriya shart-sharoitlari – undagi texnikaviy apparatlar, jihozlar, kimyoviy moddalar bilan tanishishlari, qishloq xo'jaligi sohasida ham dala maydonlarida yetishtirilayotgan poliz ekinlari hamda bog'lardagi parvarishlanayotgan mevalar, yer kultivatsiyalari, yerni ug'itlash, suvlash, agrigatlash, ekin ekish jarayonlarini talabala-muhandislariga 5+1 ta'lim modulini ya'ni ta'lim bilan kasbiy mobillikni integratsiyalashuv asosida olib borish lozim, chunki ushbu model talaba-muhandislarni nazariy bilimlarini to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga taqbiq etish strategiyalarini, pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu maqolada kasbiy mobillik va uning mohiyati va tushuncha qamrovi haqida keng yoritilgan.

Fikr-muloxazalari

Bo'lajak muhandislarni kasbiy salohiyatini ustirish, yetuk kadr qilib tayyorlash va tanlash, ularni o'z o'rniga qo'ya olish jarayoni ta'lim tizimining eng dolzarb masalasidir. Bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini ta'lim boshqaruviga tayyorlash, yanada aniq vazifa sifatida kasbiy mobillikni rivojlantirishning eng oliy mezon, tajribadan o'tgan natijalarga tayangan xolda strategik burilishni ta'minlash mumkin. Kasbiy mobillikni tadqiq qilish, o'rganish, uning ta'riflari, tarkibiy qismlari va uslubiy yondashuvlari xilmaxildir.

Ilmiy manbalarda kasbiy mobillikni kasbiy rivojlanish bo'yicha boshqa faoliyatga muvaffaqiyatli o'tish yoki ish turini o'zgartirish qobiliyati sifatida izohlangan. Bunday mobillik umumlashtirilgan kasbiy texnikalar tizimiga ega bo'lishni, ularni tegishli sohalarda har qanday vazifalarni bajarish uchun samarali qo'llash qobiliyatini va yuqori darajadagi kasbiy bilimni, muammolarni hal qilishning maqbul usullarini tezkor tanlash hamda amalga oshirishga tayyorlikni anglatadi. Mobillik, asosan, faoliyatning namoyon bo'lishida o'rganiladi, biroq, integral xususiyat sifatida uni ikki jihatda – **salohiyat va shaxsning haqiqiy harakatchanligi sifatida ko'rib chiqish mumkin** (M.Nuriddinova: 2024.127). Mobillik har doim subyektning **faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu motivatsion komponentning rivojlanish dinamikasi bilan bog'liq bo'lib, ichki resurslarni safarbar qilishida aks etadi.** Ular: faoliyat, aqliy, irodaviy, kognitiv-kontent, kompetensiya jarayonlariga asoslangan.



Mobillikni faqatgina shaxsning jismoniy harakatchanlikka bo'lgan qobiliyati emas, balki uning psixologik xususiyatlari, fikrlashi va hissiy jarayonlardagi harakatchanligi sifatida ham izohlashimiz lozim. Mobillik tushunchasi dastlab o'tgan asrning boshlarida amerikalik sotsiolog olim P.A.Sorokin tadqiqotlarida uchraydi. Uning fikricha mobillik "insonning yoki ijtimoiy obyektning ma'lum bir ijtimoiy vaziyatdan boshqasiga ko'chishi"ni ifodalaydi. Tadqiqotchi individual va guruhli ijtimoiy mobillikni tadqiq qilish asnosida ularni vertikal va gorizontal turlarga ajratadi. Mazkur tushunchaning vujudga kelishini dunyo miqyosida inson maqomining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar sifatida ifodalash zaruriyati, deb qayd etadi. P.A.Sorokinning tadqiqotlari keyinchalik ko'plab sotsiolog olimlar tomonidan davom ettirildi hamda mobillikning inson kapitalining boyishiga, uning shaxsiy rivojlanish, yangi bilimlarni egallashi va almashishi, tillarni o'rganishi, madaniyatlararo ko'nikmalarini rivojlantirishi orqali hayotda o'z o'rnini topishi va ish joyi bilan ta'minlay olish darajasida ko'mak berishiga e'tibor qaratdilar. Ular, mobillik tushunchasiga – ta'lim vositasi, sharti yoki omili sifatida qarash imkoni ekanligini ta'kidlaydi. Kasbiy mobillik haqida ko'plab olimlar (Artyuxova T.Yu.2010; Gorbatoва T.N.2015; Murtozayeva M.M.2012; Naydanova Yu.V. 2014; Nizamova M.N.2022) o'z fikr-muloxazalarini ta'kidlab utishgan.

Nizomova M.N (2024) o'z asarida ta'limda pedagogik kadrlarni tayyorlashda kasbiy mobillik haqida yoritib berdi: ta'limning konseptual asoslarida kasbiy mobillikni o'zida rivojlantirgan pedagog mutaxassislariga nisbatan bir qator vaziflar qo'yilgani, ijtimoiy jamiyatning taraqqiy etishida va yoshlar ta'lim-tarbiyasini to'g'ri tizimlashtirishni tashkil etish hamda boshqarishda bo'lajak muhandislarning kasbiy mobilligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. **Shu bois pedagogik jarayonlarda mobillik, mutaxassis kadrlarning kasbiy xususiyatlarini - mobilligini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyati dolzarb masalalardan hisoblanadi.** Mobillikning "mobil shaxs", "shaxsiy mobillik", "professional mobillik" tushunchalari aniq ishlab chiqilgan va o'zaro bog'langan to'g'ri tizimli uslubiy jihati yo'q. Shu bois bu masalaning hal qilinishida qiyinchiliklar mavjud.

Bir qancha olimlar kasbiy mobillik haqida o'z fikr-muloxazalarini aytishgan: T.Yu.Artyuxova – shaxsiy mobillikni faollik, ochiqlik va o'z-o'zini anglash istagi kabi xususiyatlarga ajratib, bu xususiyatlar o'zgaruvchan muhitda va sharoitlarda shaxsning yaxlitligini saqlashga imkon berishini qayd etadi;

T.B.Koliy esa shaxsiy mobillikni shaxsning integral sifatini samarali amalga oshirish uchun boshqa turdagi mobilliklardan ajralib turishini, shaxs o'z-o'zini faol ijodiy rivojlantirishga va samarali muloqotni shakllantirishga imkon beruvchi motivatsiya ekanligini qayd etadi.

Talaba-yoshlar kasbiy mobilligini rivojlantirish va uning mohiyatini anglatishda qishloq xo'jaligi fanini o'qitishga tayyorlik uchta uslubiy yondoshuv komponentlaridan iborat. Ular quyidagicha:

- 1) operativ – faoliyat usullariga, bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lish;
- 2) emotsional-irodaviy – talabaning faoliyatga munosabati, o'z-o'zini boshqarishi va hissiy tajribasi;
- 3) motivatsion – faoliyatga qiziqish, kasbiy vazifalarni bajarish uchun mas'uliyatni anglash, faoliyatni yuqori professional darajada bajarishga intilish, kasbiy o'z-o'zi rivojlantirish ehtiyojini faollashtirishdir.



Olim A.A. Ibragimov (2022:672-683) kasbiy mobillik va unig bir qancha turlarini o'z asarida quyidagicha izohlagan: pedagogika va ta'lim sohasiga oid jarayonlarga mobillik atamasi " akademik mobillik, " kasbiy mobillik" tushunchalari shaklida amaliyot kiradi. Mobillik tushunchasi pedagogik amaliyot va tegishli adabiyotlar tahlilida quyidagi ko'rinishlarda shakllanganligi hamda rivojlanganligini e'tirof etish mumkin: akademik, kasbiy, shaxsiy, kommunikativ, innovatsion, axborot, kognitiv.

Kasbiy mobillik talabalar shaxsinning ma'lum bir qobiliyatigina emas, balki kasbiy faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish, moslashuvchan tafakkurga ega bo'lishi, sohaviy yangiliklarni qabul qilish va ularni amaliyot jarayonlarida singdirishning uyg'unligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida uch tomonlama hamkorlik

So'nggi yillarda dunyo xamjamiyatida ta'limda tub uzgarishlar sodir bo'lmoqda. Ulardan biri bu dual ta'lim, ya'ni qishloq xujaligi talabalarini kasbiy mobilligini oshirish va takomillashtirish uchun ta'lim bilan kasbiy amaliyotni bir butunlikda integratsiya asosida olib borish va talaba-muhandislarni, texniklarni kasbiy kompetensiyalarini oshirishga bo'lgan fikrlar ilgari surilmoqda. Bu mobillik ta'lim tarbiya jarayonlarida pedagog xodimlarni ishlash uslubini, ta'lim berish metodikasini ham uzgartiradi. Shu bilan birga, pedagog xodimlar talaba-muhandislarni nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish kompetensiyalarini bilishi lozim bo'ladi, chunki nazariy bilim bilan amaliyotda kasbiy bilimlarni olinib borish talaba-muhandislarni uzluksiz ravishda o'z sohasini bilishga va yangi bilimlarni egallashga, tajriba orttirishga undaydi.

Talaba-muhandis

Universitet sohaviy zavod

Kasbiy mobillikni afzallik tomonlari shundan iboratki, talaba-muhandislar nafaqat nazariy bilimlar, balki nazariyada olinmagan bilimlar, yechilmagan masalalarni sohaviy zavod yoki dala-maydonlarda, laboratoriyalarda o'z kompetensiyalarini oshirishadi.

Xulosa

Xozirgi kunda ta'lim jarayonlarida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Shu bois qishloq xujaligini kelajakda chuqur isloh qilishimiz uchun avvalambor mazkur sohada taxsil olayotgan talaba-muhandislarni bilimini oshirishimiz, ularni yangicha model orqali o'qitishimiz kerak bo'ladi. 5+1 model, ya'ni haftada besh kun universitetda o'qishi, nazariy bilimlarni egallashi, bir kuni esa ishlab chiqarish sanoat zonalarida, yermaydonlarida amaliyot utashi kasbiy mobillikni takomillashtirishga turki bo'ladi, chunki kasbiy mobillik talaba-muhandislarni o'ziga sohasiga, kelgusi ishiga bo'lgan qiziqishini oshiradi, qishloq xujaligi sohasini to'liq egallashi, qishloq xujaligi sohasida yechilmay qolgan muammolarni bartaraf etadi, o'z kasbiga innovatsion yondashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Низамова М. (2024). Talabalarda kasbiy mobillik va o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rivojlantirish komponentlari. Наука и инновации, 1(1), 126–128. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ilm-fan-va-innovatsiya/article/view/32930>.



2. Nizamova M.N. Talabalar kasbiy mobilligini rivojlantirishning pedagogik mohiyati va funksiyalari. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – Toshkent, 2022. – 1/9-son. 141-144-b.
3. Артюхова Т.Ю. Психологические характеристики мобильной личности //Международный журнал экспериментального образования. – 2010. – № 7. – С. 96-98.
4. Горбатова Т.Н. Коммуникативная мобильность в рамках иноязычного пространства как важная составляющая профессиональной компетенции специалиста // Молодой ученый. –2015. –№ 10 [90]. – С. 1143-1145.
5. Murtozayeva M.M. 7 Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning ekologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.dok ... diss. avtoref. – Toshkent: 2022. - 67 b.
6. Найданова Ю.В. 2 Мобильная личность обучающегося как научное понятие // Вестник ЮУрГУ. 2014 № 2 С. 40–45.
7. Амирова Л.А. Развитие профессиональной мобильности педагога в системе дополнительного образования: автореф. дис. ... д-ра. пед. наук. – Уфа, 2009. – 43 с.
8. Аракелова Т.Л. 4 Взаимное обучение как условие развития когнитивной мобильности у будущих учителей: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2006. – 26 с.
9. Биктутанов Ю.И. Методологические аспекты развития профессиональной мобильности учителя в системе дополнительного образования вуза. // Педагогическое образование в России. – 2013. – № 6. – С. 7-11.
10. Горюнова Л.В. 11 Составляющие профессиональной мобильности современного специалиста // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. – 2007. – № 1. – С. 63-68.
11. Дементьева О.М. 1 Место познавательной мобильности в структуре познавательных процессов // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 6-0. – С. 485-491.
12. Жизненный путь поколения: его выбор и утверждение / под ред. М. Х. Титма. – Таллин: Ээсти раамат, 1985. – 370 с.
13. Игошев Б.М. Системно-интегративная организация подготовки профессионально
14. мобильных педагогов: 4 автореф. дис. ... д-ра. пед. наук. – Москва, 2008. – 43 с.
14. Калиновский Ю.И. 10 Развитие социально-профессиональной мобильности андропода в контексте социокультурной образовательной политике региона: автореф. дис. ... д-ра. пед. наук. – СПб., 2001. – 43 с.
15. Котлярова И.О., Найданова Ю.В. 1 Формирование мобильности личности в системе непрерывного образования: обзор / Вестник ЮУрГУ. Серия "Образование. Педагогические науки", 2017. – Е. 9, № 2. – С. 6-26.
16. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: "Эксмо", 2006. – 944 с.
17. Поддубская Е.А. Развитие 5 когнитивной мобильности педагога в процессе дополнительного образования взрослых: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Минск, 2017. – 27 с.



18. Поддубская Е.А. Когнитивная мобильность педагога: сущность, структура, критерии развития // Весці БДПУ. Серія 1. Педагогіка. Психологія. Філологія. – 2010. – № 3. – С. 3-7.
19. Солоненко В.А. Развитие когнитивной мобильности студента как необходимое условие подготовки будущего специалиста // Вестник Брянского университета. – 2010. – № 1. – С. 117-119.
20. Толковый словарь английского языка / Под ред. А.Хорнби. – М.: Сигма пресс, 1995. – 850 с.
21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев ва б.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.
22. Desabie J. La Mobilité Sociale en France. Bulletin d’Information, 1956, pp. 25–63. (in Fr.)